TARIX

UDK: 93/94 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a43**

ROSSIYA IMPERIYASI VA AFG‘ONISTON O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARDA TURKISTON HARBIY OKRUGINING ISHTIROKI

УЧАСТИЕ ТУРКЕСТАНСКОГО ВОЕННОГО ОКРУГА В ОТНОШЕНИЯХ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ И АФГАНИСТАНА

THE PARTICIPATION OF THE TURKESTAN MILITARY DISTRICT IN RELATIONS BETWEEN THE RUSSIAN EMPIRE AND AFGHANISTAN

Boxodirov Ixtiyor Boxodir o‘g‘li[1]

[1]**Boxodirov IxtiyorBoxodiro‘g‘li** – Toshkent moliya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi t.f.f.d (PhD).

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar, ikki davlat o‘rtasida O‘rta Osiyoda yuz bergan harbiy-siyosiy raqobat, uning natijalari, bu jarayonda Turkiston harbiy okrugining ishtiroki tahlil etilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются отношения Российской империи и Афганистана во второй половине XIX – начале XX века, военно-политическое соревнование двух стран в Средней Азии, его итоги, участие Туркестанских военных администрация в этом процессе проанализировала.

Abstract

This article analyzes the relations between the Russian Empire and Afghanistan in the second half of the 19th-early 20th centuries, the military-political competition of the two countries in Central Asia, its results, the participation of the Turkestan military in this process was analyzed by the administration.

Kalit so‘zlar: *harbiy okrug, general-gubernatorlik, amirlik, artilleriya, batalyon, shtab, lashkar, chegara, istehkom, qal’a.*

Ключевые слова: *военный округ, генерал-губернаторство, эмират, артиллерия, батальон, штаб, армия, граница, укрепление, крепость.*

Key words: *military district, general-governorship, emirate, artillery, battalion, headquarters, army, border, fortification, fortress.*

KIRISH

Turkiston general-gubernatorligi XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida turli yillarda sharqda – G‘ulja (Ili) sultonligi, Yettishahar amirligi, Sin imperiyasi, Xitoy respubikasi, janubda – Afg‘oniston amirligi, janubiy-g‘arbda Eron (Fors shohligi) bilan chegaradosh bo‘lgan. General-gubernatorlik bu davlatlar bilan O‘rta Osiyoning turli hududlari uchun doimo harbiy va siyosiy jihatdan o‘zaro raqobatda bo‘lgan va o‘z chegaralarini qo‘riqlashga jiddiy e’tibor bergan. Manfaatlar to‘qnashuvi jarayonida metropoliya Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlariga tayangan va uning ustunligi asosida harakat qilishga intilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiq etilayotgan davr tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan manba va adabiyotlar; 2) sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar, risola va maqolalar; 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 4) xorijiy adabiyotlar.

Rossiya imperiyasi hukmronligi yillari va sovet davrida yaratilgan asarlarda Turkiston harbiy okrugi tarixiga doir masalalar bir tomonlama mavjud tuzum manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilingan. Mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlarda ham harbiy okrug faoliyati, uning Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik tizimini mustahkamlashdagi roli va chegaradosh mamlakatlar bilan munosabatlarda imperiya manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyati yetarli darajada yoritilmadi. Shuning uchun ham mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotni amalga oshirish dolzarb hamda ilmiy-amaliy ahamiyatga molikdir.

Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

1868–yil Turkiston general-gubernatorligi Buxoro amirligi orqali Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘ladi. Rossiya hukumati Afg‘onistonni Britaniyaning ittifoqchisi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan urushda inglizlarning asosiy harbiy platsdarmi deb hisoblagan. Turkistondagi rus ma’muriyati afg‘on siyosiy qochqinlariga boshpana berishga Afg‘onistondagi siyosiy jarayonlarga faol aralashish vositasi sifatida qaragan. 1869-yil aprelda Toshkent va Samarqandda 103 nafar afg‘on harbiylari muhojirlikda yashagan: hukumron tabaqa vakillaridan Maxmud Olamxon, Murtazoxon, 6 ta miroxur, 7 ta qorovulbegi, 14 ta jevachi, 74 ta oddiy askar[1]. Ularga oyiga 1951 rubl nafaqa to‘langan[2]. Afg‘on harbiylari Turkiston harbiy okrugida nomuntazam askarlar sifatida xizmat qilgan. 1868-yil 200 ga yaqin afg‘on askarlari okrug qo‘shinlari tarkibida Buxorodagi harbiy harakatlarda qatnashgan[3]. 1869–yildan boshlab sobiq afg‘on amiri Afzalxonning og‘li sardor Abdurahmon ham Samarqandda yashay boshlagan. Unga afg‘on taxti davogari sifatida katta e’tibor berilib, yiliga 25 000 rubl nafaqa tayinlangan[4].

XIX asr 70–yillari ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi va Britaniya o‘rtasida munosabatlar yomonlashuvi davrida Afg‘onistonning ahamiyati yanada ortgan. General Skobelev Afg‘oniston orqali ingliz Hindistoniga bostirib kirish g‘oyasini o‘rtaga tashlagan. U buning uchun Samarqandda jamlanadigan 16000 ga yaqin harbiylar va 60 ta artilleriya qurollari zarur deb hisoblagan. Skobelevning rejasiga ko‘ra afg‘on amiri Sheralixon (1863-1879) bunga qarshilik qiladigan bo‘lsa Buxoro armiyasini Afg‘onistonning Maymana, Andxo‘y hududlariga va inglizlar tasiri ortib borayotgan Marv turkmanlariga qarshi yuborish lozim edi[5].

1878–yil aprelda imperator Aleksandr II Kaufmanga agar Bolqonda bo‘layotgan Turkiya bilan urushga Britaniya aralashadigan bo‘lsa inglizlarga Osiyoda kutilmagan zarba berish uchun Turkiston orqali Hindistonga bostirib kirishga tayyorgarlik ko‘rishni buyuradi. Kaufman okrug qo‘shinlari asosida Zarafshon (Jom), Farg‘ona (Marg‘ilon), Amudaryo (Petro-Aleksandrovsk) otryadlarini tuzish[6] va Jomda 48 ta rota, 21 ta yuzlik, Petro-Aleksandrovskda 6 ta rota, 2 ta yuzlik[7], Marg‘ilonda 10 ta rota, 6 ta yuzlikni yig‘ishni rejalashtiradi[8]. Keyinroq Fag‘ona otryadidagi 3-Orenburg polki 3 ta yuzligi va polkovnik Garder bilan 4 ta liniya rotasini ham Jom otryadi tarkibiga kiritilishi belgilab qo‘yiladi[9].

1878–yil may oyida Kaufmanning 4073-sonli buyrug‘i bilan otryadlar tarkibi to‘la shakllantirilib harbiy qismlarning dastlabki guruhlari Jom, Marg‘ilon va Chorjo‘yga ko‘chirila boshlangan. Jom otryadiga general Trotskiy, Marg‘ilon otryadiga general Abramov, Petro-Aleksandrovsk otryadiga polkovnik Grotingelm qo‘mondonlik qilishi[10], asosiy Jom otryadi tarkibi eng kamida 12356 kishidan iborat bo‘lishi kerakligi belgilab olinadi[11]. Otryadlarni shakllantirib bo‘lingach Kaufman general Stoletovni (1834-1912) Sheralixon huzuriga yuboradi. Kaufman 68 ta batalyon va 16 ta otliqlar polkidan iborat afg‘on armiyasining bir qismini ekspeditsiyasi vaqtida o‘z ittifoqchisi bo‘lishini maqsad qilgan edi[12].

Jom, Marg‘ilon (1) va Petro-Aleksandrovsk (2) otryadlari tarkibi:[13]

№	Piyodalar	Otliqlar	Artilleriya
Jom	O‘qchi brigada: 16 ta rota 3-Garbiy-Sibir bt.: 5 rota 3,5-batalyon: 10 ta rota 6,9-batalyon: 10 ta rota 14,15,17-batalyon: 6 rota 1 ta sapyorlar rotasi	1-Sibir polki: 4 yuzlik 2-Orenburg polki: 4 yuzlik 3-Orenburg polki: 4 yuzlik 4-qo‘shma polk: 6 yuzlik 5-qo‘shma polk: 1 yuzlik 1 ta konvoy yuzlik	1-Turk.art.brigada: 1-batareyasi 2-batareya yarmi 3-batareyasi 1 raketa batareyasi 1.5-kazak batareyasi
1	2,4,7,14,15,16-bat: 6 rota	5-qo‘shma polk: 3 yuzlik	6 to‘p, 4 raketa stan.
2	6 ta rota	1-orenburg polki: 2 yuzlik	4 ta to‘p
	Jami: 60 ta rota	**Jami**: 25 ta yuzlik	**Jami**: 62 art. quroli

Kaufmanning harakatlari o‘z samarasini berib inglizlar birlashgan rus-afg‘on qo‘shini Hindistonga bostirib kirishi mumkinligidan qattiq tashvishga tushib qoladi. Natijada 1878-yil yozida “Berlin kongresi”da inglizlar va ruslar o‘zaro murosa yo‘lini tanlaydilar. Natijada Hindiston eskpeditsiyasi harakatlari ham to‘xtatiladi. Aslida Hindiston ekspeditsiyasini amalga oshirish okrug uchun murakkab masala edi. Bu amaliyot okrugda yalpi safarbarlik amalga oshirilishiga va

Turkistonda zaxira batalyonlari va bir necha kazak yuzliklarigina qolishiga olib kelar edi. Qo‘shimcha kuchlar olib kelinadigan eng yaqin harbiy okrug markazi Orenburg va Toshkent orasida masofa esa 1705 verst (1818 km.) bo‘lib uni bosib o‘tish uchun 58 kun vaqt talab qilinardi. Hali o‘lkada temir yo‘llar ham yo‘q edi[14].

1878–yil 21-noyabrda Sheralixonning ingliz elchisi general Chemberlenni qabul qilishdan bosh tortganligi tufayli “Ikkinchi ingliz-afg‘on urushi (1878-1881)” boshlanadi[15]. Inglizlar afg‘on armiyasini qiyinchiliksiz mag‘lub etishadi. Kaufman inglizlar ta’sirida Ili o‘lkasida manjurlar bilan urush boshlanishi ehtimoli kuchliligi tufayli Stoletov orqali vada qilingan 30000 kishilik armiyani Afg‘onistonga yubormaydi[16]. Bundan tashqari Peterburgga yordam so‘rab bormoqchi bo‘lgan Sheralixon Turkiston chegaralaridan ham o‘tkazilmaydi[17]. Sheralixon 1879–yil 9-fevralda Mozori Sharifda kasallanib vafot etadi[18]. Lekin Afg‘oniston to‘la inglizlar nazoratiga o‘tib ketishini istamagan Kaufman 1879–yil dekabrda harbiy okrug tomonidan berilgan 200 ta berdanka miltig‘i[19], 200 ta harbiy kiyim, pul[20] va 260 kishilik kichik otryad[21] bilan sardor Abdurahmonni Afg‘oniston hududiga o‘tib olishiga imkoniyat yaratadi. 1880–yil martigacha Yangiqal’a, Rustak, Qunduz, Badaxshon va butun shimoliy Afg‘onistonni[22] egallagan Abdurahmon iyulda inglizlar bilan kelishuvga erishib afg‘on amiri sifatida tan olinadi. Hokimiyatga kelgan amir Abdurahmon (1880-1901) Kaufmanning ishonchini oqlamay Janubiy Turkmaniston, Badaxshon, Pomir hududlari uchun Turkiston general-gubernatorligining raqobatchisiga aylanadi.

Afg‘oniston bilan Turkiston o‘lkasidagi dastlabki harbiy mojaro 1884–1885–yillarda Janubiy Turkmanistonda Pande vohasda kelib chiqadi. Inglizlar ta’sirida amir Abdurahmon ham bu hududga da’vo qilib 4000 kishilik qo‘shinni Pande vohasiga yuboradi. 1885–yil 18-mart kuni Kavkaz harbiy okrugi Kaspiyorti qo‘shinlari qo‘mondoni A.V.Komarov (1883-1890) 8 rota, 4 ta kazaklar yuzligi va 4 ta to‘p[23] bilan (jami 1800 askar[24]) Kushka daryosi yaqinida Toshko‘prikda afg‘on qo‘shinlarini mag‘lub etadi. Jangda Kavkaz qo‘shinlari tarkibida Turkiston harbiy okrugidan polkovnik Kazansev qo‘mondonligida[25] 17-liniya batalyoni ham qatnashgan[26]. Toshko‘prikdagi jangda 4700 kishilik afg‘on otryadidan[27] 800 dan ortiq askar o‘ldiriladi. Komarov otryadidan 40 askar halok bo‘ladi[28]. 17-Turkiston batalyonidan esa 3 ta askar jarohatlanadi[29]. Jang maydoni yaqinidagi general Peter Lemsden boshliq ingliz otryadi afg‘onlarga yordamga kelishga jur’at etmaydi[30]. Bu g‘alaba inglizlarning o‘lkadagi va xalqaro maydondagi mavqeyiga jiddiy zarba bo‘lgan. G‘alaba natijasida ruslar Pande vohasini va Kushkani egallaganlar.

XIX asr 90-yillardida Rossiya, Britaniya, Afg‘oniston o‘rtasidagi oxirgi harbiy-geosiyosiy raqobat Pomirdagi Darvoz, Rushon, Shug‘non, Voxon, Sariko‘l hududlarida kechadi. Rossiya Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlariga tayangan holda bu raqobat natijasini ham o‘zi tomonga og‘dirishga erishgan. 1876-yil Qo‘qon bosib olingach Pomir ham Rossiya imperiyasi mulki deb e’lon qilingandi. Ammo buni Angliya, Afg‘oniston va Xitoy tan olmaydi. Asosiy qismi tog‘lardan iboratligi, Farg‘ona viloyatidan uzoqdaligi va yaxshi o‘rganilmaganligi uchun bu hududda rus harbiy pozitsiyalari uzoq vaqt kuchaytirilmaydi. Bundan foydalangan Afg‘oniston va Xitoy Rushon, Shug‘non, Sariko‘lni bosib olishga intilganlar. Britaniya ham bu mintaqaning muhimligini inobatga olib Pomirning Turkistonga qo‘shib olinmasligiga harakat qiladi. Inglizlar Pomirning janubi Afg‘onistonga, sharqiy qismi Xitoy nazoratiga o‘tishini maqsadga muvofiq deb hisoblaganlar.

XIX asrning 90-yillarida diplomatik yo‘llar bilan Pomir masalasi hal bo‘lmasligini tushungan imperiya muammoni harbiy kuch bilan yechishga o‘tdi. 1891-yil iyunda THO qo‘mondoni general Vrevskiy Pomirga 2-Turkiston liniya batalyoni komandiri polkovnik M.Y.Ionov (1846-1923) boshchligida harbiy otryad yuboradi. Ionovga Pomirni har qanday xitoy va afg‘on postlaridan tozalashni buyuriladi. Otryad tarkibi 7 ta ofitser, 2,7,15,16,18-liniya batlyonlaridan tuzilgan 80 kishlik piyodalar qismi va 6-Orenburg polkidan 33 nafar kazakdan iborat bo‘lgan[31]. 1891-yil 17-avgustda Ionov Voxanda Bozayi-Gumbaz hududida Pomirni o‘rganayotgan ingliz kapitani Frensis Yanghazbendni (1863-1942) qo‘lga olib[32] Xitoy hududiga chiqarib yuboradi. Muztog‘ tizmalaridagi Yashil ko‘lda qo‘lga olingan ingliz leytenanti Devison esa hibsga olinib Yangi Marg‘ilonga jo‘natiladi. So‘ngra Devison Peterburgdagi ingliz elchixonasi hodimi Eliotga topshiriladi[33]. Xitoylik chegara amaldori Chan ham Sariko‘ldan Qoshg‘arga haydab chiqariladi.

1892–yil Turkiston harbiy okrugi qo‘shinlari Pomirni qo‘lga kiritish va bu hududda rus qo‘shinlari mavjudligini taminlash uchun yakuniy nuqtani qo‘yganlar. 1892-yil yoz va kuzida polkovnik Ionov 2-liniya batalyoni 2 ta rotasi, 2,4,7,16,18,20-liniya batalyonidan 2 ta aralash ovchi

rota, 6-Orenburg kazaklar polkining 3 ta yuzligi, 1 ta yengil batareya, otliq tog‘ batareyasi 2 ta vzvodi: jami 53 ta ofitser, 906 ta oddiy askar bilan Pomirni to‘la egalladi[34]. 12-iyulda polkovnik Ionov otryadi Yashil ko‘l yaqinida joylashgan Soma-tosh istehkomidagi Pomir hududini tark etishni xohlamagan G‘ulom Haydarxon boshliq afg‘on harbiy otryadini yakson etadi. Jangda 5 nafar afg‘on askari va G‘ulom Hayarxon halok bo‘ladi[35]. Ionov tomonidan yuborigan kapitan Skerskiy yarim kazaklar yuzligi bilan xitoyliklarni Oqsuv daryosining yuqori qismidagi Oq-Tosh istehkomidan siqib chiqaradi[36]. Polkovnik Ionov Pomirda okrug qo‘shinlarining doimiy mavjudligini ta’minlash maqsadida Murg‘ob (Oqsuv) daryosi bo‘yida 1892–yil sentabrda kapitan Kuznetsov boshliq 7 ta ofitser, 160 ta piyodalar, 40 ta kazak, 26 mahalliy yigitlardan iborat alohida Shojon otryadini (Pomir otryadi) tashkil etadi[37]. 1894–yil iyul-avgust oylarida kapitan Skerskiy otryadi (12 ta piyoda, 20 ta kazak, 2 ta to‘p) Pomir postidan yuborilgan 4-liniya batalyoning 60 ta piyoda askari, 12 ta kazak va 1 ta pulemyot yordamida may oyidan beri Shug‘nondagi Shox-daryo bo‘yidagi Roshtqal’ada joylashib olgan afg‘on otryadini yengib ularni Panj daryosining chap sohilidagi Bari-Panj qal’asiga chekinishiga majbur etdi[38].

1891–1895–yillarda THO kuchlarining Pomirdagi harakatlari natijasida janubiy va sharqiy Pomir, Panj daryosining o‘ng sohilida afg‘on va xitoyliklarning mavjudligiga chek qo‘yilib Rossiya imperiyasi mulklari sobiq Qo‘qon xonligining janubiy-sharqiy chegarasi bo‘lgan Sariko‘lgacha yetib boradi. Shu davrda Hindistonda Britaniyaning 72648 kishilik ingliz va 150000 kishilik hind armiyasi[39] bo‘lsa ham Xitoy va Afg‘onistonga harbiy jihatdan ko‘mak berishga jur’at etmaydi. 1895-yil 27-fevral Londonda Britaniya va Rossiya vakillari Pomirdagi ta’sir doiralarni taqsimlash yuzasidan kelishuvga erishadi. Pomirning asosiy qismi Turkiston general-gubernatorligiga, uning g‘arbiy hududlari – Voxonning bir qismi, Shug‘non, Rushon Buxoro amirligiga o‘tadi. Yuqori Panjda Rossiya va ingliz Hindistonini ajratib turuvchi bufer hudud sifatida Voxan xonligi Afg‘onistonga beriladi. “Voxan koridori” ning kengligi atigi 12,8 km.ni tashkil etgan. Afgoniston bu hudud orqali Xitoy bilan chegaraga ega bo‘ladi.

XX asr boshida Afg‘oniston shimolidgi afg‘on qo‘shinlari chegaradagi okrug qo‘shinlaridan son jihatdan nisbatan ustun edi[40]. Lekin asosiy xavf ingliz va afg‘onlardan bo‘lgani uchun harbiy okrug janubida qo‘mondonlik tomonidan juda ko‘plab harbiy post, istehkom va qal’alar zanjiri yaratilgan edi. Afg‘oniston bilan chegarani Kaspiyortida: Islimchashma, Oq-rabod, Chamani-bid, Qal’ayi-mor, Sariyazi, Toshko‘prik postlari[41] va Kushka garnizoni, Buxoro amirligida - Kerki, Chorjo‘y, Termizdagi garnizonlar, Farg‘ona viloyatida Xorug, Pomir, Ishkashim, Langar, Oqtosh, Rangko‘l postlari va Pomir chegara otryadi[42] qo‘riqlagan.

XULOSA

Mustamlaka boshqaruvi va Turkiston harbiy okrugi o‘lka hududini egallab borish bilan birga bosib olingan yoki egallash maqsad qilingan Turkiston hududini tashqi kuchlarning hududiy da’volaridan himoya qilishga ham katta ahamiyat bergan. Shu maqsadda o‘lkada juda ko‘plab harbiy istehkomlar va chegara postlari barpo etiladi. Zero, Turkistonda boshqa davlatlar bilan raqobatda hududiy jihatdan yon berish va o‘lka yerlarini taqsimlash Rossiya imperiyasi tomonidan rejalashtirilmagan edi. Shu munosabat bilan Turkiston harbiy okrugi bir necha bor boshqa mamlakatlarning o‘lkaning ayrim hududlarini egallashga yoki chegralarga dahl qilishga bo‘lgan intilishlariga harbiy jihatdan keskin javob qaytargan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 54-yig‘ma jild, 8-9-varaq.
2. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 54-yig‘ma jild, 10-varaq.
3. Alexander Morrison. Russian rule in Samarkand 1868-1910. – New York, 2008. –P. 143.
4. Marie de Ujfalvy-Bourdan. De Paris a Samarkand. – Paris, 1880. – P. 240.
5. Грулевь М. Соперничество России и Англии вь Средней Азии. – С.-Петербургь: Тип. Э.Арнгольд, 1909. – С. 27.
6. Charles Marvin. Merv, The Queen of the World. – London, 1881. – P. 362.
7. Макшеевь А.И. Исторический обзорь Туркестана и наступательного движения в него русскихь. – С.-Петербургь: Военная типография, 1890. – С. 345.
8. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 104-yig‘ma jild, 4-varaq.
9. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 104-yig‘ma jild, 32-varaq.
10. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 104-yig‘ma jild, 90-varaq.
11. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 104-yig‘ma jild, 147-varaq.
12. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. Т II. – Москва, 1965. – С. 243

13. O‘zMA, 1396-fond, 2-ro‘yxat, 104-yig‘ma jild, 27,91-93-varaqlar.
14. MacGregor C. The defence of India: a strategical study. – Simla, 1884. – P. 35.
15. Jonathan L. Lee. Afganistan a history from 1260 to the present. – London: Reaktion books, 2018. – P. 357-358.
16. Peter Hopkirk. The Great Game: on secret service in High Asia. – London: John Murray, 2006. – P. 419-420.
17. O‘zMA, I-1 fond, 3-ro‘yxat, 389-yig‘ma jild, 195-varaq.
18. Percy Sykes. A history of Afganistan. Vol. II. – London, 1940. – P. 113.
19. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. Т II. – Москва, 1965. – С. 261.
20. Percy Sykes. A history of Afghanistan. Vol. II. – London, 1940. – P. 127.
21. Павлов Н. История Туркестана. – Ташкент, 1910. – С. 209.
22. Mannonov A., Abdullayev N. Afg‘oniston tarixi. – Toshkent, 2018. – B. 141-143.
23. Абаза К. К. Завоевание Туркетана. – С.-Петербург, 1902. – С. 308.
24. Керсновский А.А. История русской армии. Том II. – Москва: Голос, 1993. – С. 301.
25. Отчеть о состоянии войскь Закаспийской области. – Асхабад, 1897. – С. 157.
26. Хронологический указатель военныхь действий русской армии и флота (1855-1894 гг.). Томь IV. – С.-Петербургь: Военного типография, 1911. – С. 165.
27. Керсновский А.А. История русской армии. Том II. – Москва: Голос, 1993. – С. 301.
28. Peter Hopkirk. The Great Game: on secret service in High Asia. – London: John Murray, 2006. – P. 469.
29. Отчеть о состоянии войскь Закаспийской области. – Асхабад: Тип. Штаб Закаспийской область, 1897. Приложение XII.
30. Искандаров Б.И. Из истории Бухарскаго эмирата (Восточная Бухара и Западный Памир в конце XIX века). – Москва: Издательство восточной литературы, 1958. – С. 90.
31. Ураков Д.Ж. Туркистон генерал-губернаторлигининг қўшни давлатлар билан сиёсий ва иқтисодий алоқалари. – Тошкент, 2021. – Б. 124.
32. Alexander Morrison. The Russian conquest of Central Asia. – Cambridge: Cam. univ. press, 2021. – p. 495-496.
33. Robert Middleton. The Great game – myth or reality?. – Bishkek, 2019. – P. 31.
34. Robert Middleton. The Russians in the Great game. – Bishkek, 2019. – P. 37.
35. Грулевь М. Соперничество России и Англии вь Средней Азии. – С.-Петербургь: Тип. Э.Арнгольд, 1909. – С.82.
36. Хронологический указатель военныхь действий русской армии и флота (1855-1894 гг.). Томь IV. – С.-Петербургь: Военного типография, 1911. – С. 167.
37. Терентьевь М.А. История завоевания Средней Азии. Томь III. – С.-Петербургь, 1906. – С. 410.
38. Хронологический указатель военныхь действий русской армии и флота. Томь IV. – С.-Петербургь, 1911. – С. 168.
39. Грулевь М. Соперничество России и Англии вь Средней Азии. С.-Петербургь, 1909. – С. 262,275.
40. Грулевь М. Соперничество России и Англии вь Средней Азии. – С.-Петербургь, 1909. – С. 177-187.
41. Отчеть о состоянии войскь Закаспийской области (За шестилетний периодь сь 1890 по 1895 г. включительно). – Асхабадь:, 1897. – С. 27.
42. Петровский Н.Ф. Туркестанские письма (Ответственный редактор академик В.С.Мясников). – Москва: Памятники исторической мысли, 2010. – С. 54.